



**MUHAMMAD RIZO SHOH PAHLAVIY HUKMRONLIGINING
DASTLABKI YILLARIDA ERONDA SIYOSIY PARTIYALAR
SHAKLLANISHI (1941–1953-YILLAR)**

Koraboyev Murodjon Oldashovich

Oriental universiteti Ijtimoi-gumanitar fanlar

kafedrasi katta o'qituvchisi

murodjonkoraboyev715@gmail.com

+998909994903

Annotatsiya; Ushbu maqolada Muhammad Rizo Shoh Pahlaviyning taxtga kelishi, uning hukmronligining dastlabki yillaridagi siyosiy tajribasizlik hamda mamlakatda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat tahlil qilinadi. 1941-yil avgust voqealaridan keyin Eronda siyosiy erkinlik muhitining shakllanishi natijasida turli siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlarning paydo bo'lish jarayoni yoritiladi. Xususan, "Tudeh" partiyasi, "Eron partiyasi" hamda boshqa millatchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning shakllanishi, ularning g'oyaviy yo'nalishlari va jamiyatdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Muhammad Rizo Shoh Pahlaviy, Eron siyosiy partiyalari, Tudeh partiyasi, Eron partiyasi, siyosiy muxolifat, millatchilik, siyosiy islohotlar, 1941-yil avgust voqealari, Eron siyosiy tarixi.

Annotation: This article analyzes the accession of Mohammad Reza Shah Pahlavi and the political inexperience that characterized the early years of his reign, as well as the complex political environment in Iran during the early 1940s. It examines the emergence of political freedom following the August 1941 events and the subsequent formation of various political parties and social movements. Particular attention is given to the establishment and ideological orientations of the Tudeh Party, the Iran Party, and other nationalist and socio-political organizations.

Keywords: Mohammad Reza Shah Pahlavi, Iranian political parties, Tudeh Party, Iran Party, political opposition, nationalism, political reforms, August 1941 events, Iranian political history.

Аннотация; В данной работе рассматривается приход к власти Мохаммада Реза Шаха Пехлеви, политическая неопытность первых лет его правления и сложная политическая обстановка в Иране начала 1940-х годов. Анализируется формирование политической свободы после событий августа 1941 года, что способствовало возникновению различных политических партий и общественных движений. Особое внимание уделяется созданию партии «Туде», партии «Иран» и других националистических и общественно-политических организаций, их идеологическим направлениям и роли в обществе.



Ключевые слова: *Мохаммад Реза Шах Пехлеви, политические партии Ирана, партия Туде, партия Иран, политическая оппозиция, национализм, политические реформы, события августа 1941 года, политическая история Ирана.*

Muhammad Rizo Shoh Pahlaviy 1942-yil 16-sentabr kuni Milliy kengash (Majlis) yig'ilishida qasamyod qildi. Hali 22 yoshni qarshilamagan yangi shoh davlat boshqaruvidagi tajribasizligi uning hukmronligining dastlabki yillarda yaqqol ko'zga tashlandi. Garchi Muhammad Rizo 1931-1936-yillarda Shveysariyada fransuz tilida dars beriladigan maxsus ixtisoslashtirilgan maktab-intematida tahsil olgan, 1936-1938-yillarda Tehronda harbiy akademiyaning tamomlagan bo'lsada, boshqaruvdagi tajriba yetishmasligi yaqqol ko'rinib qoldi.

Yosh va siyosiy tajribadan xoli bo'lgan yangi shoh Muhammad Reza Pahlaviy hamda Forug'i hukumati na siyosiy, na iqtisodiy hokimiyatni amalda egallagan edi. Ular tartib va intizomni saqlashga qodir emasdilar va shu bilan birga Reza Shoh ketganidan keyin kuchaygan tuzum tanqidlariga duch keldilar.

Bu sharoitda mavjud siyosiy kuchlar jamiyatlar va partiyalar tuzish faoliyatiga kirishdilar. Eng avvalo, qamoqdan ozod etilgan siyosiy mahbuslar bu ishni boshladilar. "Ellik uchlar guruhi" a'zolaridan biri, Eron Xalq partiyasining (Tudeh) asoschilaridan sanalgan Iraj Iskandariy bu partiyaning shakllanish jarayonini quyidagicha tasvirlaydi:

"Hamkasblarimiz qamoqdan ozod etilishidan oldin men ularning ayrimlari bilan suhbatlashib, ularga darhol biror ish boshlash zarurligini uqtirgan edim"³⁹. Bundan Rezo Shoh hokimiyatdan ketgandan so'ng, mamlakatning ilg'or ziyolilar qatlami harakat boshlaganini ko'rish mumkin.

Iskandariy va uning hamfikrlari o'z atrofiga sobiq siyosiy mahbuslar hamda surgundan qaytganlarni — kommunistlar hamda kommunist bo'lmaganlarni to'plab, Eron Xalq partiyasi ("Tudeh")ning asoslarini qo'ydilar. Aytish joizki, partiyaning barcha asoschilari uning tarkibida qolmagan: ayrimlari faqat dastlabki yig'ilishda qatnashib, keyinchalik uni tark etishgan.

Shunga qaramay, Xalq partiyasi ("Tudeh") tashkil topganidan so'ng, birin-ketin boshqa siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari hamda turli siyosiy-ijtimoiy tashkilotlar — yirik va kichik — faoliyat boshladilar. Ular orasida "Istiqlol partiyasi" (Hezbi Esteqlol), "Adolat partiyasi" (Hezbi Adolat), "Millat partiyasi" (Hezbi Mellat) kabi tashkilotlar mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos maqsad, g'oya va e'tiqodlarga ega edi.

O'sha davrda siyosiy maydonga faqat milliy, mustaqil yoki islohotchi kuchlar emas, balki jamiyatda mavjud boshqa ijtimoiy-siyosiy guruhlar ham partiya va

³⁹ Бехруз Тирани, Аснаде ахзабе сийасийе Иран // Документы политичес-ких партий Ирана //, Тегеран, с. 19.



harakatlar tuzish yo'lida qadam qo'ydilar. Faol kuchlarni quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin edi:

- mustaqil milliy-islohotchi kuchlar;
- ta'sirli yirik yer egalari va ularning oilalari;
- saroy (qirollik) atrofida;gilar;
- tashqi kuchlar⁴⁰.

Shunday qilib, 1941 yil avgustidagi "zarba" butun millatni uyg'otdi. Turli yo'nalishdagi partiyalar, kasaba uyushmalari va siyosiy tashkilotlarning paydo bo'lishi aynan shu "avgust zarbasi"ning mahsuli bo'ldi. Xalq partiyasi ("Tudeh") hamda "Eron" partiyasining 1941–1942 yillarda tashkil topishi yosh va ma'rifatli avlodning siyosiy-ijtimoiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojining ifodasi edi.

Ayniqsa, yosh avlod orasida millatchilik g'oyalari nihoyatda kuchli edi. Reza Shoh davrida Eronning qadimiy qudratini tiklash g'oyasi shovinizm tusini olgan bo'lsa, endilikda bu g'oya mo'tadil va islohotga yo'naltirilgan shaklda namoyon bo'ldi.

Bu holat yangi yoki qayta tiklangan partiyalarning dasturlarini tahlil qilish jarayonida ham o'z tasdig'ini topadi. Millatchilik yo'nalishidagi partiyalar orasida ayniqsa "Eron partiyasi" ("Hezbe Eron"), "Mustaqillik partiyasi" ("Hezbe Esteqlol"), "Vatanparvarlik partiyasi" ("Hezbe mihanparastan"), "Iymonli sotsialistlar jamiyati" ("Jomiyate xodaparastane sosiyalist"), "Islom fidoyilari" ("Fedoyon-e Eslom"), "Musulmonlar ligasi" ("Ettehodiye-ye moslemin") va "O'rmon sotsialistlari partiyasi" ("Hezbe jangale ejtemaiyun")ni alohida ta'kidlash lozim⁴¹.

"Eron partiyasi" 1943-yilda Karim Sonjabin hamda Mehdi Baragan va Ali Shoyegon tomonidan tashkil etilgan edi. Bu shaxslar Yevropada ta'lim olgan eronlik yosh ziyolilar edi. Shu davrda eron jamiyatida nisbatan ta'sir kuchiga ega bo'lgan yana bir ijtimoiy qatlam — yirik yer egalari hamda boshqa imtiyozli tabaqalar hisoblangan. Siyosiy erkinlik muhiti shakllana boshlagan bir paytda aynan shu qatlamlar inqilobiy yoki parlament yo'li bilan o'zlarining to'plagan yoki hatto Rizo Shoh davrida turli yo'llar bilan orttirgan boyliklaridan ayrilib qolishdan eng ko'p qo'rqayotgan edi.

Ular o'z manfaatlarini anglab yetgan holda, yangi Majlisda o'z iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini himoya qilish uchun shaxsiy partiyalar tuzish zarurligini yaxshi tushunishgan. Shunday partiyalar qatoriga "Adolat" partiyasi, "Milliy ittifoq" partiyasi, "Xalq" partiyasi va "Yangi Eron" partiyalarini kiritish mumkin⁴².

Muhammad Rizo Pahlaviy taxtga chiqqan paytda, u mamlakat ichida ham, tashqarisida ham kuchli muxolifat kayfiyatlariga duch keldi. Chet el yordami va tayanchiga tayanib, u bu muxolifatni mag'lub etishga, shuningdek, o'zini taxtdan

⁴⁰ Бехруз Тирани, Аснаде ахзабе сийасийе Иран //Документы политиче-ских партий Ирана//, Техран, с. 20.

⁴¹ Бехруз Тирани, Аснаде ахзабе сийасийе Иран //Документы политиче-ских партий Ирана//, Техран, с. 21

⁴² Бехруз Тирани, Аснаде ахзабе сийасийе Иран //Документы политиче-ских партий Ирана//, Техран, с. 22.



ag'darish xavfini bartaraf etishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, 1953-yil 19-avgustdagi davlat to'ntarishigacha u otasi Rizo Shoh singari to'liq hokimiyat vakolatlarini o'z qo'lga jamlay olmadi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rizo Shoh Pahlaviyning taxtga chiqishi Eron tarixida murakkab siyosiy o'tish davriga to'g'ri keldi. Yosh va siyosiy tajribasi yetarli bo'lmagan shoh hukmronligining dastlabki yillarida mamlakatda siyosiy bo'shliq yuzaga kelib, turli partiyalar va ijtimoiy-siyosiy kuchlar faollashdi. Ayniqsa, siyosiy mahbuslar va ziyolilar tashabbusi bilan "Tudeh" partiyasi hamda boshqa tashkilotlar shakllanib, jamiyatda siyosiy faollik kuchaydi.

1941-yil avgust voqealaridan keyingi nisbiy siyosiy erkinlik muhitida millatchi, islohotchi va manfaatdor ijtimoiy qatlamlar o'z partiyalarini tuzdilar. Natijada siyosiy pluralizm shakllandi va turli kuchlar o'rtasidagi raqobat kuchaydi. Biroq, Muhammad Rizo Shohning hokimiyatni to'liq mustahkamlashi faqat 1953-yilgi davlat to'ntarishidan keyin amalga oshdi. Mazkur davr Eron siyosiy tizimining qayta shakllanish bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milani A. *The Shah*. — New York: Palgrave Macmillan, 2011.
2. Pahlavi M.R. *Mission for My Country*. — London, 1961.
3. Abrahamian E. *Iran Between Two Revolutions*. — Princeton University Press, 1982.
4. Cronin S. *The Making of Modern Iran*. — Routledge, 2003.
5. Iskandari I. *Memoirs* (Tudeh Party sources).
6. Katouzian H. *The Political Economy of Modern Iran*. — London, 1981.
7. Gasiorowski M. *U.S. Foreign Policy and the Shah*. — Cornell University Press, 1991.
8. Bakhash S. *Iran: Monarchy, Bureaucracy and Reform*. — London, 1978.
9. Keddie N. *Modern Iran: Roots and Results of Revolution*. — Yale University Press, 2006.
10. Foran J. *Fragile Resistance*. — Westview Press, 1993.
11. Chehabi H. *Iranian Politics and Religious Modernism*. — Cornell, 1990.
12. Abrahamian E. *A History of Modern Iran*. — Cambridge University Press, 2008.